

MINTAQADA SANOAT KORXONALARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA MODELLASHTIRISHNING O'RNI

Rahimov Azizbek Zakirovich

Qarshi davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: azizbekrahimov201983@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalarni innovatsion rivojlanishida imitatsion yondashuvning xorij tajribasini o'rganish asosida raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy xususiyatlarini o'rganish bo'lib, bozorda korxona va tashkilotlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan yo'nalishlarni o'rganish. Maqolada iqtisodiyotning innovatsiyalarga asoslangan o'zgarishi bevosita davlat, xususiy biznes, davlat muassasalari va ilmiy hamjamiyatning innovatsion faoliyati bilan bog'liqligi o'rganilgan. Shu sababli, innovatsion faoliyatning mohiyati va mexanizmini o'rganish mutaxassislar uchun muhim bosqich hisoblanadi. Korxonaning axborot muhitini rivojlantirish, korxonaning yangi modullarini joriy etish, ma'lumotlar uzatish kanallarini modernizatsiya qilish zaruriyati paydo bo'ladi.

Kalit so'zlar: modellashtirish, imitatsion modellashtirish, innovatsion menejment, innovatsiya, raqobat, barkaror innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat.

Аннотация

Статья посвящена исследованию основных особенностей обеспечения конкурентоспособности на основе изучения зарубежного опыта имитационного подхода в инновационном развитии предприятий, а также направлений, обеспечивающих устойчивость предприятий и организаций на рынке. В статье рассматривается тот факт, что трансформация экономики на основе инноваций напрямую связана с инновационной деятельностью государства, частного бизнеса, государственных учреждений и научного сообщества. Поэтому изучение сущности и механизма инновационной деятельности является важным этапом для специалистов. Необходимо развивать информационную среду предприятия, внедрять новые модули предприятия, модернизировать каналы передачи данных.

Ключевые слова: моделирование, имитационное моделирование, управление инновациями, инновации, конкуренция, устойчивая инновационная деятельность, инновационный потенциал

Abstract

This article is devoted to studying the main features of ensuring competitiveness based on the study of foreign experience of the imitation approach in the innovative development of enterprises, and to studying the directions that serve to ensure the stability of enterprises and organizations in the market. The article studies the fact that the transformation of the economy based on innovations is directly related to the innovative activities of the state, private business, state institutions and the scientific community. Therefore, studying the essence and mechanism of innovative activities is an important stage for specialists. There is a need to develop the information

environment of the enterprise, introduce new modules of the enterprise, and modernize data transmission channels.

Keywords: modeling, simulation modeling, innovation management, innovation, competition, sustainable innovation activity, innovation potential.

KIRISH

Yurtimizda olib borilayotgan oqilona siyosati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayoni korxonalar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini sezilarli darajada o'zgartirishni, ular faoliyatini bozor talablariga moslashtirishni talab qilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va korxonalarni innovatsion rivojlantirishda aniq va ilmiy asoslangan imitatsion modellashtirish usullari katta ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan korxonalar innovatsion rivojlanishini imitatsion modellashtirish bugungi iqtisodiy muhitda zaruriy va dolzarb jarayon hisoblanadi. Bu yondashuv yordamida mintaqaviy biznes subyektlari aniq tahlillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Imitatsion modellashtirish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalishlarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLARNING SHARHI

Korxonalar innovatsion rivojlanishini imitatsion imitatsion modellashtirish bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar va amaliy yondashuvlarning asosiy maqsadi korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat.

Korxonalarda olib borilayotgan islohatlar negizida innovatsion iqtisodiy siyosat tushunchalari "hududni rivojlantirish" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Bu haqda V. N. Leksin va A. N. Shvetsov buni «hayot darajasi va sifati parametrlarining ijobiy dinamikasiga yo'naltirilgan mintaqaviy tizimning shunday ishlash tartibi» deb tushunadilar. Aholi, barqaror, muvozanati bilan ta'minlangan hududning ijtimoiy, iqtisodiy, resurs va ekologik potentsiallarini o'zaro vayronagarchiliksiz takror ishlab chiqarish». Shu bilan birga, tushunchalar "hudud" va "mintaqaviy tizim" ular tomonidan sinonim sifatida qabul qilinadi. Hudud ostida mualliflar ma'lum bir qismini ijtimoiy, tabiiy, iqtisodiy, infratuzilmaviy, madaniy va tarixiy yoki mahalliy hokimiyatlar ostida bo'lgan davlatning fazoviy korxonalaridir.

Sanoat korxonalarga turli innovatsion sohalaridagi kamchiliklarning mavjudligi, o'z navbatida sanoat korxonalarning moliyaviy iqtisodiy zaifligini keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi navbatda, mintaqada korxonalarni rivojlantirishni moliyaviy-iqtisodiy rivojlantirish modellari ishlab chiqiladi. Moliyaviy ko'rsatkichlarga byudjetlarning daromad bazasini oshirish uchun asosiy zaxiralarni izlash va ularni qonunchilik bilan tartibga solish, ijtimoiy adolatni ta'minlash nuqtai nazaridan byudjet soliq qonunchiligini takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish[3], byudjetlar aro transfertlarning rolini rivojlantirishdan iborat[4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarini rivojlantirishda korxonalarini innovatsion shakllantirishda rivojlanishning eng maqbul va mintaqaning o'ziga xos xususiyatlariga, hududiy holatiga mos keladigan Modellar orqali innovatsion rivojlanish strategiyalaridan foydalaniladi (1-jadval).


1-jadval.

Sanoat korxonalarini rivojlantirishda imitatsion modellashtirish natijalariga asoslangan strategiyalar¹

Korxonalar uchun imitatsion modellashtirish natijalariga asoslangan strategiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi			
Pul oqimlarini tahlil qilish va samarali boshqarish	Yangi texnologiyalarni joriy etish uchun investitsiyalarni jalb qilish	Moliyaviy va iqtisodiy xatarlarni kamaytirish uchun sug'urta va hedjing mexanizmlaridan foydalanish	Mintaqaviy iqtisodiyotda klaster tizimlarini shakllantirish orqali kooperatsiyani kuchaytirish

Bizning tavsiyamiz mintaqaviy korxonalarning barqaror rivojlanishi uchun, innovatsiyalarni joriy etish, texnologiyalar va boshqaruv usullarini yangilash, malakali kadrlardan foydalanish, resurslardan samarali foydalanish, mahalliy xom ashyodan maksimal foydalanish, institutsional muhitni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish lozim.

Mintaqada ishlab chiqarish korxonalarning moliyaviy baholash deganda, ma'lum bir hududdagi (mintaqadagi) biznes va korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari va quvvatlarini tahlil qilish va baholash tushuniladi. Bu jarayon siklik jarayon bo'lib, quyidagi asosiy maqsadlarga ega (1-rasm).



1-rasm. Korxonalarni moliyaviy baholash².

¹ O'rganishlar natijasida muallif ishlanmasi


² Muallif ishlanmasi

Rasmdan ko'rib turganimizdek, moliyaviy holatni baholash va rivojlanish jarayonlarini tavsiflovchi siklik modelni ifodalaydi.

Korxonalarining moliyaviy holatni aniqlashda moliya va iqtisodiy faoliyatning hozirgi ahvoli tahlil qilinadi va korxona yoki hududning moliyaviy ko'rsatkichlari baholanadi. Ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy barqarorlik, barqaror iqtisodiy muhit yaratilishi va moliya oqimlari va daromadlarning barqarorligini ta'minlash zarur. Investitsion jozibadorlik kapital jalb qilish va sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish kerak. Moliyaviy barqarorlik mavjud bo'lsa, investitsiyalar kiritilishi osonlashadi. Rivojlanish salohiyati investitsiyalar natijasida o'sish va innovatsiyalarni joriy etish imkoniyati paydo bo'ladi va korxona yoki iqtisodiy sektorning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi shakllanadi. Rivojlanish jarayonida duch kelinadigan muammolar tahlil qilinadi va moliyaviy, iqtisodiy yoki tashkiliy to'siqlar aniqlanadi va ularga yechim topish rejalashtiriladi.

Fikrimizcha ushbu siklik model moliyaviy rivojlanish va investitsion jozibadorlikni oshirish uchun zarur jarayonlarni ko'rsatadi. Barqaror moliyaviy tizim bo'lmasa, investitsiyalarni jalb qilish qiyinlashadi. Investitsion jozibadorlik rivojlanish salohiyatini oshiradi, ammo qiyinchiliklarni aniqlash va bartaraf etish jarayoni doimiy amalga oshirilishi kerak. Doimiy monitoring va tahlil amalga oshirilsa, tizim samarali ishlaydi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Korxonalar faoliyatini innovatsion rivojlantirishni bosqichlari turli usullar va tahlil vositalari orqali amalga oshiriladi. Bu baholash jarayonida asosan quyidagi bosqichlarda ko'rsatkichlar tahlil qilinadi (2-rasm).



2-rasm. Korxonalar faoliyatini innovatsion rivojlantirishni bosqichlari¹

Rasmdan ko'rib turganimizdek, birinchi bosqichda mintaqa korxonalarining innovatsion rivojlanishi bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bu bosqichlar

¹ Muallif ishlanmasi

korxonaning joriy holatini tahlil qilish, strategik maqsadlarni belgilash, investitsiya jalb qilish, innovatsiyalarni joriy etish va bozor sharoitlariga moslashish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich bosqich–Diagnostika va tahlil qilishda korxonaning mavjud moliyaviy holati, aktivlari va passivlari tahlil qilinadi. Moliyaviy barqarorlik va likvidlik ko'rsatkichlari baholanadi. Daromadlar va xarajatlar tuzilmasi o'rganiladi. Bozor segmenti va raqobatchilar tahlil qilinadi.

Ikkinchi bosqichda strategik rejalashtirishda rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi (o'sish, diversifikatsiya yoki modernizatsiya). Kapital va resurslarni jalb qilish rejalari belgilanadi. Korxonaning uzoq muddatli maqsadlari aniqlanadi. Innovatsion va texnologik rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi.

Investitsiya va moliyalashtirishda, investitsiya manbalari aniqlanadi (bank kreditlari, davlat grantlari, xususiy investorlar). Kapitalni samarali taqsimlash rejalari ishlab chiqiladi. Qarz mablag'larini jalb qilish yoki aksiyalar chiqarish strategiyasi ishlab chiqiladi. Davlat subsidiyalari va imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi.

Uchinchi bosqich operatsion rivojlanish va samaradorlikni oshirishda ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi. Innovatsion texnologiyalar joriy etiladi. Xodimlarning malakasini oshirish dasturlari amalga oshiriladi. Mahsulot tannarxini pasaytirish va samaradorlikni oshirish choralari ko'riladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda bozorni kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishda, yangi bozor segmentlariga chiqish strategiyalari ishlab chiqish, marketing strategiyalari optimallashtiriladi. Elektron tijorat va raqamli texnologiyalar joriy etiladi. Tashqi bozorlarga chiqish va eksport imkoniyatlari o'rganiladi. Monitoring va nazorat o'rnatishda moliyaviy ko'rsatkichlar va rivojlanish jarayonlari doimiy nazorat qilinadi. Ichki audit tizimi mustahkamlanadi. Rivojlanish natijalari tahlil qilinib, zarur tuzatishlar kiritiladi. Raqobatchilarning faoliyati va bozor tendensiyalari kuzatib boriladi. Buning natijasida innovatsion rivojlanish va barqaror o'sish yuzaga keladi. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlari joriy etiladi. Ekologik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslangan rivojlanish strategiyalari amalga oshiriladi. Barqaror moliyaviy tizimni yaratish va uzoq muddatli strategiyalarni tatbiq qilish yo'llari ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қаландаров Р. А.Резервы роста доходной базы бюджетов бюджетной системы Российской Федерации //Финансовая аналитика. Проблемы и решения. — 2014. — № 43 (229). — С. 27–39.
2. Балынин И. В.Введение прогрессивного налогообложения доходов физических лиц в Российской Федерации в контексте обеспечения социальной справедливости // Финансы и кредит. — 2016. — № 31 (703).— С 15–31.
3. Васюнина М. Л.Межбюджетные трансферты субъектам Российской Федерации. Современные проблемы и приоритеты // Финансовая аналитика. Проблемы и решения. 2016. № 45 (327). — С. 17–27

4. Горохова Д. В. Управление бюджетными рисками субъектов Российской Федерации на современном этапе управления государственными финансами // Управление риском. — 2013. — № 1. — С. 22–27

5. Косов М. Е. Анализ рисков потери доходов бюджетной системы Российской Федерации // Научные ведомости Белгородского государственного университета. — 2018. — № 1. Т. 45. — С. 59–66. — (Экономика. Информатика). — doi: 10.18413/2411-3808-2018-45-1-59-66.

6. Rodger C., Petch J. Uncertainty and risk analysis : a practical guide from Business Dynamics. — UK: PricewaterhouseCoopers, 1999. — 50 p.